

O'ZBEK TILIDAGI METAFORALARDA RANG KOMPLEMENTI

U. Jumayeva ¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi metaforalarda rang komponentining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada ranglar ishtirokidagi metaforalarning semantik xususiyatlari va tasviriy imkoniyatlari, ularning tilda va xalq og'zaki ijodida, shuningdek, adabiy va ommaviy nutqda qanday namoyon bo'lishi ko'rib chiqiladi. Ranglar orqali yaratilgan metaforalarning xalq dunyoqarashi, estetik didi, hissiy holati va madaniy qadriyatlarini aks ettirishi, hamda oq, qora, qizil va ko'k ranglarning turli kontekstlardagi ramziy ma'nolari misollar yordamida ochib beriladi. Shuningdek, maqolada rangli metaforalar tilshunoslikda semantika, kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya sohalarini nuqtayi nazaridan muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: metafora, rang komponenti, semantika, o'zbek tili, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya, ramziy ma'no, estetik qadriyatlar.

Metaforalar turli komponentlar asosida qurilishi mumkin, ulardan ranglar orqali yaratilgan metaforalar xalqning dunyoni idrok etish mexanizmini, estetik didini, hissiy holatini anglashda muhim vosita sanaladi. Rang ishtirokidagi metaforalarni o'zbek tilida nafaqat badiiy adabiyotda balki, og'zaki nutqda, maqol va matallarda va hatto ommaviy axborot vositalarida ham keng qo'llanilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu maqolada keng tarqalgan rang tus bildiruvchi so'zlar ishtirokidagi metaforik birliklarning semantik xususiyatlari va tasviriy imkoniyatlari o'rganiladi.

Ranglar va ularning semantikasi

Metaforalar madaniyatning konseptual tizimi sifatida har bir tilga va unda so'zlovchi xalqlar madaniyatiga bog'liq bo'lgan til vositasidir. Arastu davridanoq metaforaga qiziqish bildirilib, o'rganilib kelinayotgan bo'lsada, asrlar mobaynida bu qiziqish ortsa ortdiki kamaymadi, balki metaforaga turli yangi qarashlar paydo bo'lib bordi va hozir ham davom etmoqda. Har bir til o'ziga xos metaforik sistemaga ega bo'lib, bu sistema jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy holati bilan uzviy bog'liq. Ranglar inson ongida nafaqat vizual tasavvur, balki hissiyot, kayfiyat va ijtimoiy tushunchalar bilan ham bog'liqdir. Ular til tizimidagi ramziy vositalarni anglatadi. Masalan, oq rang o'zbek xalq tafakkurida poklik, begunohlik, ezgulik bilan bog'liq bo'lsa, yashil rang tabiat, umid, yoshlik ramzi sifatida, qora rang esa ko'pincha motam, g'am, xavf, yovuzlik kabi salbiy tushunchalarni ifodalashda ishlatiladi. Shu tarzda ranglar orqali yaratilgan metaforalar ko'pincha ma'no ko'chishi asosida yuzaga keladi.

Turli ranglar ishtirokidagi metaforalar

O'zbek tilida va xalq og'zaki ijodida oq rang ijobiy ma'noda qo'llanilib, poklik, ezgulik, sharaf timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, oq yo'l, oq sut, oq ko'ngil kabi tilimizda ko'p uchraydigan metaforik birliklarni olsak, ularning barchasidan ijobiy ma'no anglashilganini ko'rishimiz mumkin.

Kimgadir oq yo'l tilash orqali u insonga omad va bexavotir manzilga yetishi istagini ko'rsatish mumkin. Oq sut iborasi esa onaning haqqi va uning muqaddasligi ramzi sifatida ko'rsatiladi. Betakror adib Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" asarida Hasanaliga nisbatan "... oq ko'ngil bir qul edi" deya ta'rif berish orqali uning pok va yaxshi insonligini ta'kidlab o'tgan.

Qora rang salbiy semantik maydonga ega bo'lib, ko'plab metaforalarda qayg'u, baxtsizlik, aza, xavf yoki yovuzlik timsoli sifatida xizmat qiladi. Ba'zi kontekstlarda esa ushbu rang kuch, qat'iyat, jiddiylik ma'nolarini ham ifodalashi mumkin. Quyida qora rang ishtirokidagi bir nechta misollarga to'xtalib o'tamiz.

- Qora kun – og'ir hayot, musibatli davrga nisbatan;
- Qora xabar – noxush xabar ma'nosida;
- Qora niyat – yomon maqsad, salbiy niyat ma'nosida;
- Ichi qora – g'araz niyatli, shuningdek boshqalarni ko'ra olmaydigan insonga nisbatan;

Yuqoridagi metaforalar o'zida musibat va baxtsizlik ma'nolarini tashiydi. Qora kiymoq iborasida esa qora rang aza ma'nosini anglatadi: Yusufbek hoji xatmi Qur'on qilib yurtka osh berdi, O'zbek oyim qora kiyib ta'ziya ochdi [A.Qodiriy, 2019]

Qora kuch metaforasida esa qora rang orqali qat'iyat ma'nosi ifodalanishi mumkin.

Qizil rang o'zbek tilida ko'p hollarda muhabbat, jasurlik va ba'zan xavf va tahdid timsoli sifatida tasvirlanadi. Masalan o'zbek tilida keng tarqalgan birgina Qizil yuz metaforasi 3 xil ma'noda qo'llanilishi mumkin.

¹ Jumayeva Umida, SamDCHTI tayanch doktoranti

1. Otabekning yuzi qizarib bolag'a qaradi, Kumush yuzini yana ko'rpag'a yashirib oldi. (uyalish ma'nosida)

2. O'ktam bu so'zlarni eshitib, yuzining birdan qizarganini his qildi. G'azab bilan boshi tepasiga qadar qon yugurdi. (G'azab ma'nosida)

3. Qizning yuzi qip-qizil edi, yoshlik va baxt yuzidan nomoyon edi. (sog'lomlik ma'nosida)
Ko'k rang metaforalarda asosan tinchlik, umid, qo'rquv, sovuqlik kabi ma'nolarni anglashib kelishi mumkin (rangi ko'karib ketdi, moviy tuyg'ular), ko'pincha kontekstda osmon ma'nosida ham qo'llanadi (tutuni ko'kka chiqdi, yer-u ko'kka ishonmaydi kabi iboralarda).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tilidagi metaforalarda rang komponenti muhim semantik va madaniy yuklamaga ega bo'lib, bu ranglar fizikal xususiyatni bildiribgina qolmay, balki ramziy ma'noni ham o'zida mujassam etib, bunday metaforalar orqali o'zbek xalqining estetik dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlarini ham ifodalash xususiyatiga egadir. Bu holatlarni kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish mumkin bunda ranglar inson ongida milliy madaniyat, diniy tasavvurlar, urf-odatlar, tarixiy tajribalar bilan shakllangan ma'lum konseptual maydonlar bilan bog'lanadi va til vositasida metaforik ifoda topadi.

Ranglar ishtirokidagi metaforik birliklar tahlili tilshunoslikda semantika, kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya sohalarini kesishmasida muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Aristotel. *Poetika*. Toshkent: Fan, 1980.
- [2]. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
- [3]. Qodiriy, A. (2019). *O'tkan kunlar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- [4]. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati*. Toshkent, 1978
- [5]. Xolbayev, F. U., & Mahmudova, K. S. (2023). METAPHOR ANALYSIS AND ITS FEATURES IN TEXT LINGUISTICS. *Молодой специалист*, 2(18), 19-22.
- [6]. Saidovich, A. S. (2023). KIM BUSIKNING "SAMGUK SAGI" ASARIDA TARIXIY NASNING RIVOJLANISH BOSQICHLARIDGI MIFOLOGEMALAR TALQINI. *Gospodarka i Innowacje*, 38, 47-51.
- [7]. Ashurov, S. S. (2020). Инглиз ва ўзбек тилларидаги интернационал мақоллар таржимасидаги ассиметрик ҳолатлар. *Молодой ученый*, (18), 584-586.
- [8]. Nizomiddinovich, E. M., & Azamatovna, M. D. (2025, January). HOW TO IMPROVE STUDENTS'READING COMPREHENSION THROUGH MATCHING HEADINGS IN THE CEFR TEST. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 2, No. 2, pp. 13-20).
- [9]. Sobirjanovna, M. K. (2025). HOW TO USE ENGLISH SONGS PROPERLY IN TEACHING ENGLISH. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(4), 351-356.